

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

zulfiyaolimova98@gmail.com

ABDULLA QODIRIY IJODIY FAOLIYATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abdulla Qodiri ijodiy faoliyatini bugungi kundagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Adibning turli xil yozgan asarlari, hikoyalari va ularning o'sha davrdagi mustabid tuzum davrida aholiga bo'lgan ta'siri va boshqa jihatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz", "Uloqda", "Shodmarg", "Jinlar bazmi" kabi hikoyalariga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiri, oziq ishlari. "Najot" gazetasi, "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz", "Uloqda", "Shodmarg", "Jinlar bazmi", mustabid tuzum, "Padarkush", "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga.

ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АБДУЛЛЫ КАДИРИ СЕГОДНЯ

Аннотация: В статье дается подробная информация о современном значении творчества Абдуллы Кадыри — одного из величайших деятелей узбекской литературы. Особое внимание удалено различным произведениям и рассказам писателя, их влиянию на население в условиях авторитарного режима того времени и другим аспектам. Особое внимание удалено таким рассказам Кодири, как «Несчастный жених», «Женщина», «В козле», «Шодмарг» и «Партия демонов».

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, продовольственная работа. Газета «Наджот», «Несчастный жених», «Джуфонбоз», «Улокда», «Шодмарг», «Партия джиннов», тиранический режим, «Падаркуш», «Той», «Ахволимиз», «Моему народу».

THE SIGNIFICANCE OF ABDULLA QADIRI'S CREATIVE ACTIVITY TODAY

Annotation: This article provides detailed information about the creative work of one of the great figures of Uzbek literature, Abdulla Qodiri, and its significance today. Special attention is paid to the various works and stories written by the writer, their impact on the population during the tyrannical regime of that time, and other aspects. Special attention is also paid to Qodiri's stories such as "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz", "Uloqda", "Shodmarg", "Jinlar bazmi".

Keywords: Abdulla Qodiri, food work. "Najot" newspaper, "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz", "Uloqda", "Shodmarg", "Jinlar bazmi", tyrannical regime, "Padarkush", "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga".

Abdulla Qodiri XX asr yangi o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri va ulkan iste'dod sohibi bo'lgan. U yaratgan asarlar kattayu kichikning qalbidan birdek joy olgan. Abdulla Qodiri 1894-yil 10-aprelda Toshkentda, oddiy bog'bon oilasida tavallud topgan. Bo'lajak adib hayat mohiyatini, turmushdagi tirikchilik tashvishlari va ziddiyatlarini juda ham erta angladi. XX asrdan oldingi bo'lgan davrdagi ijtimoiy hayotdagi tang holatlar yosh Abdullaning bolaligiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shu ma'noda adib o'z tarjimayi holiga oid manbalarda

o'sha paytalarini hotirlab shunday so'zlarni yozadi: "Men qaysi yilda va qaysi ouda tug'ilganimni bilmayman. Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug'ilib, yaqinlarimning so'zlariga so'zlariga qaraganda mustabid Nikolay taxtga o'tirgan yilida tug'ilg'onman. Boshida boy oilada tug'ildimmi yoki kambag'al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qorni oshg'a to'ymag'onidan aniq bildimki, besh jonning tomog'I faqat 80 yoshlik chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog'ning yozda yetishtirib beradigan hosilden kelar ekan." Abdulla Qodiri dastlab muslimon maktabida, undan keyin esa rus-tuzem maktabida hamda Abulqosim shayx madrasasida ta'lif olgan. Uning otasi Qodir bobo Turkiston tarixida o'tgan bir nechta hukmdorlar zamonida yashab, uzoq yillar umr ko'radi. Uning ahloqiy tarbiyasi, ijodi hamda romanlarining yuzaga kelishiga otasidan eshitgan voqe-hodisalar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham adib o'z asarlarida otasini yuksak ehtirom bilan tilga oladi va o'zi yozgan hikoyalaridan birini otasiga bag'ishlaydi. Abdulla Qodiri insonlar orasiga kirib, jamiyat dardlarini shu jumladan, Oziq qo'mitasining "Oziq ishlari" gazetasida o'zining faoliyatini olib borgan va 20-yillarda ijtimoiy-siyosiy muhit o'yinlarini kuzatgan. Adib ayni vaqtida ijtimoiy hayotga, matbuot ishlari va boshqa shu turdag'i ishlarga faol tarzda aralasha boshlaydi.

Abdulla Qodiri ijodiy faoliyatining boshlanish vaqtি XX asrlarning boshiga to'g'ri keladi. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiri imzosi bilan "Yangi masjid va maktab" sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibning matbuotdagi birinchi chiqishi edi. Oradan ko'p o'tmay Abdulla Qodiri "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga", "Fikr aylag'il" kabi she'rlarni yozdi. "Fikr aylag'il" she'rida oqil insonlarga murojaat qilib:

Oqilo fikr aylagilki, na ishlayur ahli vatan,

Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo'ldi chapan? –

deb kuyundi. Adib millat ahvolini o'nglash uchun g'ayrat kerak. Qodiri o'z tengqurlari bo'lgan yoshlar g'ayratidan, hammaslaklari bo'lgan ziyoilar shijoatidan umid qiladi."¹¹ Millatni uyg'otish, ma'rifatni ulug'lash, Vatanni e'zozlash, ilm va ma'rifatga da'vat qilish – bularning bari jadid adabiyotining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. O'zining she'rlarida jaholatni, nodonlik va ilmsizlik kabi illatlarni qoralaydi. Ungacha nodon odam uchun har to'rt fasl ham baravar – qish, "jaholat sassig'i" har qanday odamning ko'nglini behuzur qiladi. Bu kabi yomon illatlardan qutulishning eng yo'llaridan biri maktablar ochish, ilm-ma'rifat o'rganshdir. Yana ta'kidab o'tiladiki, bo'yniga tilladan tumor taqib olgan qizlarni "o'ylamangiz olima deb, jumlesi nafsiz, ziyon" dir. Uning o'sha davr manzaralariga bo'lgan munosabati o'z so'zi bilan aytganda "hasrati" shunday. Jaholat dardlarining da'vosi ma'rifatdir. Darhaqiqat barcha zamonlarda bo'lgani singari bilganlar bilan bilmaganlar, o'qiganlar bilan o'qimaganlar, ma'rifatli insonlar bilan johillar o'zaro farqlangan.

Abdulla Qodiri ijodiy faoliyatining dastlabki na'munalari millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib, jadidchilikning ezgu g'oyalari bilan sug'orilgan edi.

"Baxtsiz kuyov" dramasi. Mazkur drama 1925-yilda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasidan ta'sirlangan holda yozilgan drama hisoblanadi. Turkistonning maishiy hayot tarzidan olib yozilgan "Baxtsiz kuyov" dramasi Abdulla Qodiri ijodining ilk davriga tegishli bo'lib, sarlavhasidan keyin muallif uni "to'rt pardali fojia" deb ataydi. Ushbu dramada hashamatli to'y voqealari, ortiqcha miqdordagi surf-harajatlar hamda ularning ko'ngilsiz natijalari masalasi o'rtaqa qo'yiladi. Unda maishiy turmushdagi illatlardan biri deb qaralgan –

¹¹ Karimov B. Abdulla Qodiri. Risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

isrof, to'nda qiz bola uchun o'rinsiz katta qalin oullari solinishi, shariati islomga amal qilmaslik oqibatida bir oilaning barbod bo'lishi haqidagi voqealar chirolyi tarzda ochib beriladi. Adib mazkur asarida islom ma'rifatini, jadid namoyondalariga xos ilg'or fikr va g'oyalarni ilgari surish yo'lidan boradi. Millatning fojiasiga sabab bo'luvchi turli xil bid'at amallardan odamlarni yiroqda tutib, ularni ogohlilikka chaqiradi. O'z vaqtida teatr sahnalarida juda ko'p marotaba naoyish etilgan mazkur drama o'z oldida turgan adabiy – ma'rifiy vazifasini yetarli darajada bajargan edi.

“Abdulla Qodiriyning 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyingi faoliyati asosan matbuot bilan bog'langan. Uning 1919-1925-yillar oralig'ida yozilgan maqolalar soni 300 atrofida. Abdulla Qodiriyning publitsistik chiqishlari avvalo o'sha davrning tarixiy hujjati, zamonasining solnomasi. 20-yillar o'rtalarida yozilgan “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo'lat tajang nima deydir?” satirik hikoyalari turkumida yozuvchi kulgusi “xarakter kulgusi” darajasiga ko'tarildi. Muallif bunda hayotdagi, odamlar tabiatidagi muayyan salbiy hodisalarini sof mafkuraviy nuqtai nazardan turib, nuqlu biryoqlama qoralash, fosh etish yo'lidan bormay, xarakter va hodisalarini xolis turib, murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatishga jazm etadi.”² Uning yana bir hikoyalardan biri “Juvonboz” hikoyasidir. U adibning o'zi e'tirof etganidek, “tatarlarda chiqib tug'on hikoya va ro'monlarga taqlidan” yozilgan edi. Ushbu hikoyada o'qishini tashlab yomon yo'llarga kirib ketgan bir yigitning otasi mol-mulkini bekorchi narsalarga sovuradi, oilasini moddiy jihatdan yomon ahvolga solib, ota-onani dog'da qoldirib, oxir oqibat jinoyatga qo'l uradi va natijada qamaladi. Aynan mana shu “Juvonboz” asari yozilayotgan bir paytda “Turkiston viloyatining gazeti” da “Hayo” imzosi bilan “Julqunboy bilan mubohasa” degan maqola nashrdan chiqadi. Maqolaning muallifi Julqunboyga tanbeh ma;nosida bir-ikki iflosga qarab, butun taraqqiyparvar shaxslar ustidan hukm chiqarish yaramaydi degan so'zlar aytadi. O'zini “Men taraqqiyparvarman” deya tanishtirib, lekin o'zini faxsh ishlarga qo'l urgan ko'zbo'yamachi munofiqlar o'sha vaqtarda ham bo'lган.

“Abdulla Qodiriyning “Juvonboz” va “Baxtsiz kuyov” lar mashqi tufayli yozuvchining qalami charxlanib bordi. Navbadagi “Uloqda” (1916) hikoyasida jiddiy realistik o'zgarish yuz berdi. Oybek bu haqda yozadi: “Abdulla Qodiri turmushni badiiy ko'rsatishda tez o'sadi. Nasrchilikda uning ustaligi mukammallahadi. 1916-yillarda yozilgan “Uloqda” nomli hikoyasi – “Juvonboz” va boshqa asarlariga nisbatan tenglashtirmaslik darajada yuqori bir asar. Yozuvchi hikoya texnikasi, priyomlarini egallagan. Voqealarni ochish, bularning inkishofi va yesilishi ovro'pa novella forma ravishidadir. Bu asarda jonli bo'yoqli obrazlar uchraydi. Kishilarning portreti aniq, qabartib beriladi. “Uloqda” hikoyasida tashviqotchining, voizning o'rnini san'atkor oladir.”³ Haqiqatdan ham e'tibor beradigan bo'lsak, Abdulla Qodiriyning ijod maydonidagi tajribasi asardan-asarga juda ham tez o'sib boradi. “Shodmarg” hikoyasi ham adibning eng yaxshi hikoyalardan biri hisoblanadi. Ziyo Saidning bergen ma'luotlariga qaraganda, “Najot” gazatasining shiori “Tenglik, hurriyat, adolat” edi. Munavvarqori Abdurashidxo'lov boshchiligidan chiqqan mazkur gazeta jamoasi “Musulmonlar birikingiz”, “Biz fazilatimizni orttiraylik, kamchiligmizni tugallataylik” deya xalqqa xitob qiladi. Gazetaga yozib turguvchi qalam ahli qatori Abdulla Qodiri ham alohida tilga olinadi. Julqunboyning “Shodmarg” hikoyasi 1917-yili mart oyida ana shu “Najot” gazatasi nashr etiladi. “Jinlar bazmi” hikoyasi dastavval 1921-yilda “Sharq cheachagi” jurnalida nashr etiladi. “Jinlar bazmi”ni adib “mavhu hikoya” deb nomlaydi. Bu orqali asarda bayon qilingan voqealarni yuz bo'lish – bo'lmasligi tomonini nazarda tutadi. Aslida, badiiy adabiyot qalamga olinadigan turli xil voqealarni yuz bo'lish – bo'lmasligi tomonini nazarda tutadi. Aslida, badiiy adabiyot qalamga olinadigan turli xil voqealarni yuz bo'lish – bo'lmasligi tomonini nazarda tutadi. Aslida, badiiy adabiyot qalamga olinadigan turli xil voqealarni yuz bo'lish – bo'lmasligi tomonini nazarda tutadi.

² <https://wikipedia.org> sayti.

³ Oybek. Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li. Toshkent. Fanlar komitetining nashri. 1936.

yuritilganda, ularning haqiqatdan ham borligiga ishonishmaydi. Holbuki, Qur’oni karimda jinlar haqida yetarlicha ma'lumotlar beriladi.

Abdulla Qodiriy kolxoz hayotidan olib yozmoqchi bo'lgan yangi asari uchun kerakli bo'ladigan manbalar toplash uchun Toshkent atrofidagi qishloqlarni kezadi, ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'ladi. Garchand adib bir-biridan go'zal asarlar yozib, o'z millatining ma'naviy dunyosini beباho asarlar bilan boyitgan bo'lsa ham, mustabid tuzum bunday ilm namoyondasini qadriga yetmaydi. Uni dushmanga chiqaradi va 1937-yilning 31-dekabr kuni hibsga olinadi. Adib o'zining "Har kim bir nima yozar ekan, oldin vijdonini tarozu qilsin – da qalam yuritsin", "Qo'rkoqlik vijdoniksizdir" kabi so'zlariga butun hayoti davomida amal qildi. U uzoq cho'zilgan tergovlardan keyin hech bir aybi o'z isbotini topmaganligi bois 1938-yil 4-oktabrda xalq dushmani sifatida qatl etildi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkunki, Abdulla Qodiriy o'zi yozgan asarlari orqali o'z millati vakillarini tafakkur egasiga aylantirishni, mudragan kimsalarni uyg'otishni maqsad qilgan edi. Shu niyatda yozilgan asarlari mustabid sho'rolar tuzumi davrida ham yashirin tarzda bo'lsa ham o'qildi va o'z tarixiy missiyasi vazifasini a'lo darajada bajardi. Abdulla Qodiriy hamda uning qahramonlari orzu qilgan haqiqiy erkin va ozod kunlarda biz istiqomat qilmoqdamiz. Zulm, zolim, erksizlik, tengsizlik,adolatsizlik jafolarini faqatgina o'zining boshidan o'tkazgan, o'sha mustabid tuzumda yashab, sinab ko'rgan insongina teran tushunadi. Ammo biror kishiga bunday azobli kunlarni hech kim tilamaydi. Bugungi kunda biz shunday mustaqil diyorda yashayotganimiz uchun shukronalar aytmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Oybek. Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li. Toshkent. Fanlar komitetining nashri. 1936.

1. Karimov B. Abdulla Qodiriy. Risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. – Toshkent: Fan. 1986.
3. Bahodir Karim. Abdulla Qosiriy fenomeni. – Toshkent: Info Capital Group. 2019.
4. Abdullayev M. O'tganlar yodi. – Toshkent: Davr – Press, 2012.
5. Normatov U. Qodiriy bog'i. – Toshkent: Yozuvchi, 1995.
6. <https://wikipedia.org> sayti.